

TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR VA O'ZLASHTIRISH USULLARI

Sharipboyeva Mashhura Anvarovna

Talaba Samarqand davlat chet tillari instituti

Gmail: sharipboyevamashhura@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Nematullayevna**

O'qituvchi Samarqand davlat chet tillari institute

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlangan davlatlarning, xususan Yaponiya, Singapur, Finlandiya va AQSH kabi davlatlarning ta'lism sohasiga berayotgan e'tibori, ta'lism tizimidagi yutuqlari va ularning bu sohaga eng yaxshi yondashuvlari haqida tushuntirilgan. Aynan bu mamlakatlardagi ta'lism tizimi bosqichlari va zamonaviy ta'lism dasturlarini O'zbekiston ta'lism sohasida keng qo'llanganligi va yutuqlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism, mamlakat, ta'lism bosqichlari, majburiy ta'lism, PISA (Programme for international Student Assessment) dasturi.

KIRISH

Bugungi kunda yaxshilanishni va yanada rivojlanishni istagan har bir davlat albatta ta'lism tizimiga e'tibor qaratadi. Shu sababdan aynan ta'lism sohasida rivojlanish va yangiliklar kattadir. Ta'lism tizimini isloh qilish va talaba, o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish davlatlar e'tibor qaratayotgan birinchi maqsaddir, chunki ko'plab davlatlar o'zining kelajagini sifatli va yaxshi ta'lism olgan fuqarolar orqali tasavvur qila oladi. O'zbekistonda ham bu sohaga e'tibor ortdi va rivojlangan chet el mamlakatlari bilan hamkorlikda ko'plab ta'lism mavzusiga doir loyiha va daturlar o'quvchi va talabalarga taqdim etilmoqda. Undan tashqari yurtimiz chet el mamlakatlarda foydali bo'lgan tizimlarni o'rganishi va tadbiq qilishi lozim. Buning bir necha sabablari bor: birinchidan yangi bilim va tajribalarga ega bo'lamiz, ikkinchidan xalqaro ta'lism sitandartlari meyorlarini tushinish mumkin, bu esa ta'lism sifatini oshirib beradi. Uchunchidan hamkorlik imkoniyatlari ochiladi, ya'ni bemalol xorijiy mamlakatlar bn. Bularning barchasi bizning ta'lism tizimizni zamon talablariga moslashishiga va takomillashishiga yordam beradi.

Tartibli va intizomli ta'lism haqida gap ketganda, albatta, hamma Yaponiyani tushinishadi. Yaponiya rivojlanayotgan davlatlar orasida ham old qatorlada turadi va bu davlat har bir sohada ajpyib natijalarga erishgan. Aynan Yaponyaning ustun

jihatlaridan biri boshida aytganimdek ,albatta, tartibdir. Darhaqiqat, tartib bo'limgan joyda ta'lim ham bo'lmaydi. Yoshlarning tartib-intizomi qanchalik yaxshi bo'lsa ularning bilim darajasi va aqliy faoliyati ham shuncha aniq va kuchli bo'ladi. Bu davlatning ta'lim tizimiga kelsak, Yaponiya ta'lim tizimi ikkinchi jahon urishidan keyin Amerika ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi va shundan keyin zamonaviy tizim tomon yo'naldi. Buning natijasida hozirgi va avvalgi ta'lim tizimidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin. Bu farqlardan biri fan va mavzulardir. Avval Yaponiya asosan matematika, yapon tili va tabiiy fanlarga diqqat qaratgan bo'lsa, hozirda ingliz tili, kampyuter texnologiyalari va kreativ fanlarga ham ahamiyat beradi. Yaponiya ta'lim tizimi juda rivojlangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega va ular asosan bolalarni nafaqat tarbiyalashga, shu bilan birgalikda ularning intelektini oshirishga e'tiborini qaratishadi. Shuningdek , yaponiyada ham ta'lim tizimining asosiy bosqichlari mavjud.

1. Maktabgacha ta'lim: 3 va 6 yoshdagi bolalarni qamrab oladi.
2. Boshlang'ich ta'lim: 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydi. Bu bosqichda yapon tili, tabiiy fanlar bilan birgalikda axloqiy va ma'daniy ta'lim ham beriladi.
3. O'rta ta'lim: 12 yoshdan 15 yoshgacha davom etadi va bu bosqichda ingliz tilini o'rganishga katta e'tibor qaratiladi.
4. O'rta maxsus ta'lim: 15 yoshdan boshlab 3 yil davom etadi. Bu bosqichda akademik fanlar chuqurroq o'rgatiladi.
5. Oliy ta'lim: bu bosqich universitet yoki kasbiy ta'limdan iborat. Bu bosqich 4 yil davom etadi.

Yaponiyada nafaqat o'quvchilardan yuqori baho ta'lab qilinadi, shu bilan birga u yerda jamoviy ruh va tartibga ham ahamiyat berishadi. Undan tashqari Yaponiya va O'zbekiston ta'lim tizimida ham ayrim o'xshashliklar bor. Ma'lumki, Yaponiya davlati qanchalik zamon bn teng bo'lmasin o'zining ijtimoiy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni ta'lim bilan uyg'unlashtirib saqlab qolgan. Aynan shu jihat ham O'zekistonda ahmiyatli hisoblanadi. Ya'ni ikkala davlatda ham axloq darslarida jamiyatda qanday hatti-harakat qilish kerakli o'qitiladi.

Sifatli ta'lim haqida gap ketganda, ko'pchilik Finlandiya ta'lim tizimini aytib o'tadi. Darhaqiqat Finlandiya o'zining eng yaxshi pedagog kadrlar yetishtirishi va ularning barchasi 2 yillik magistr darajasiga ega ekanligi va har bir ta'lim markazlarida kuchli fanlar chuqur o'tilishi Finlandianing ko'p jihatdan rivojlanishiga va boshqa davlatlarga o'rnak bo'lishiga yordam beradi. Shu sababdan o'qituvchilik tibbiyotdan keyin eng ko'p talab qilinadigan kasbga aylandi. Finlandiya

eng past ma'lumotli davlatdan o'zlashtirish va oliv ma'lumotli aholi soni 96% ni tashkil qiladigan, PISA va ko'plab dasturlarda eng baland reytingda turadigan davlatga aylandi. Finlandiya bu natijaga ko'plab omillar sabab erishdi.

– *Ta'lif siyosati islohotlari*: 1970-yilda davlatda ko'plab o'zgarishlar boshlandi va ta'lif tizimi zamonaviy, xalqaro standartlarga mos keladigan holda ko'rib chiqildi.

– *O'qituvchiga e'tibor*: aynan shu jihat pedagogika sohasiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'qituvchiga bo'lgan e'tibor ularga yaratib berilgan sharoitlar va ularga to'lanadiga oylik maosh bu kasbni qadirlashga va ta'lif sifatini oshishiga sabab bo'ladi.

– *O'qitishda texnologiyalar*: Finlandiyada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali talaba va o'quvchilarga yangicha o'qish va o'rganish imkonini beradi.

– *Ijtimoiy hamkorlik*: ta'lif jarayonida ota-onva ta'lif muassasalari o'rtaida hamkorlik o'rnatiladi.

Finlandiya ta'lif tizimidan kelib chiqib O'zbekiston ta'lif tizimidan ham ancha yangilanishlar qilinmoqda. 2021 va 2022-yillardan boshlab O'zbekiston ta'lifida ham PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro o'quvchilarni baholash dastur testi bo'lib o'tdi. Bu dastur 3 yilda bir marta bo'ladi va unda 15 yoshli o'quvchilar qatnashadi. Eng ohirgi natijaga ko'ra Singapur, Xitoy va Yaponiya davlatlari eng yuqori natija qayd etgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lif tizimini takomillashtirishda rivojlangan davlatlar ta'lif tizimidan olingan yutuq va tajribalari muhim hisoblanishi mumkin. Aynan Singapur, Yaponiya, Finlandiya kabi rivojlangan davlatlar o'zining tajribalaridan foydalanishi mumkin: yaponiyadan intizomlik va jamoviylar muhitni yaratishni, Finlandiyadan moslashuvchanlik va individual yondashuvni, Singapurdan fan va texnologiyalarni birga qo'llashni va ualrga e'tiborni o'rganishi mumkin. Bunday yondashuvlar O'zbekiston ta'lif tizimini takomillashtiradi va raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G. Anorkulova, A.Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lif tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'lif ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-soni.
2. Yo'ldoshev J.F. xorijda ta'lif (metodik qo'llanma)- Toshkent : 1995-yil.
3. N.N.Zubaydova(2019). The importance of teaching vocabulary. International conference Bridge to science: Research works.
4. U. M Azamatovna The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples

5. D Nu'monova, U Qo'Ziyev Badiiy matnni lingvostatistik tomondan tahlil qilish Oriental Art and Culture, 119-121, 2020
6. N Dedamirzayeva, U Kuziyev Teaching English to young learners through games Oriental Art and Culture, 86-88, 2020.
7. U M Azamatovna Comparative-typological analysis of the terms of folk art International Journal on Integrated Education 3 (12), 155-157, 2020.
8. R S Sharipovna. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1-5,
9. K Khashimova, U Kuziev Participation Of Languages Of Other Systems In The Formation Of The Uzbek Literary Language Збірник наукових праць ЛОГОС, 22-25, 2020
10. U Qo'ziyev Tilda Soflik Masalasi Ta'limda Turkiy Xalqlar Milliy Mentalitetini Mustahkamlashning DolzARB ..., 2022.
11. G. U Rustamova Lingvistik Pragmatikaning Birliklari. Филологические науки 11, 0.
12. U M Azamatovna History Of Development Of Uzbek And Kyrgyz Literary Terms E-Conference Globe, 67-69, 2021.
13. Бойназаров, И. (2012). Дастурлаш асослари бўйича мультимедиали ўргатувчи тизимни ўкув жараёнига жорий этиш. Экономика и инновационные технологии, (3), 86-90.
14. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(2), 132-134.
15. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O'rGANISHDA Ommaviy Axborot Vositalarining O'rni va Ahamiyati. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(5), 240-242.
16. Jumayeva, M., & Jumayeva, M. (2024, October). Challenges And Solutions In Teaching English Literature To High School Students. In International Conference On Interdisciplinary Science (Vol. 1, No. 11, pp. 176-180).
17. Jumayev, F. B., & Jumayev, B. N. (2023). Ways to Improve Listening Skills Among Children. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(2), 129-131.
18. Jumayev, F. B., & Jumayev, B. N. (2023). Technology of Using of Didactic Games in English Language Lessons. Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(4), 112-115.
19. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).